

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, A.A.Ergashev

Alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishni takomillashtirish omillari 7

J.E.Tursunov

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish..... 12

FALSAFA, SIYOSAT

N.S.Normatov, Z.S.Jumanov

Bemorlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari..... 18

M. B.Xudaybergenova

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish: joriy muammolar va yechimlar tadqiqoti 26

TARIHX

M.H.Isamiddinov, N. Sh.Kambarov

Fag'onaning ilk bronza davri jamoalari 30

O.V.Mahmudov

«O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid..... 36

N.Sh.Kambarov, I.S.Xakimova, A.R.Poziljonov

Jaliltepa yodgorligining Farg'ona vodiysi qadimgi davri madaniyatlaridagi o'rni 45

D.A.Aytimova

Qoraqalpog'istonda dastlabki kutubxonalarining shakllanishi va rivojlanish tarixidan 49

B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov, A.R.Poziljonov

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari 54

Sh.T.Quldashev

“Tarixi shavqiy” asari: topilishi va ilmiy tahlil 66

Q.Sulaymonov, D.Madaminov

Yangi bilimlarni o'zlashtirishda tez o'qishning ahamiyati 72

Z.N.Xatamova

Qo'qon xonligi moliyaviy tizimiga elchilik masalalarining ta'siri: Xudoyorxon zodaning “Anjum at-tavorix” asari asosida 76

I.M.Burxonov

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Asomiddin O'rinboyev ilmiy tadqiqotlarini o'rganilganlik darajasi 84

A.N.Maxmudova

R.X.Sulaymonov tadqiqotlarida qadimgi Sug'd moddiy madaniyati muammolari 88

A.Sharofiddinov, D.Q.Mukarramov

Toshkent yeparxiyasiga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyati tahlili 91

D.A.Ismoilova

Turkiston o'lkasida kon-metallurgiya tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). 96

E.L.Gasanov

Ganja shahrini ko'chish tarixining tadqiqi haqida 101

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov

Mirtemirning she'riy mahorati xususida 106

Z.A.Rahimov

Tarixiy romanda syujet va xarakter 110

F.Isomiddinov

Irim-sirimlar 115

D.M.Xoshimova

«Boburnoma»dagi shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy vositalarning tarjimada berilishi 120

TARIXIY ROMANDA SYUJET VA XARAKTER
СЮЖЕТ И ХАРАКТЕР В ИСТОРИЧЕСКОМ РОМАНЕ
PLOT AND CHARACTER IN A HISTORICAL NOVE

Rahimov Zokir Azimovich¹

¹Rahimov Zokir Azimovich

– Fargʻona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo" romanlarida voqea-hodisalar va xarakterlar talqinida hayotiylikka erishish, tasvirda yangilikka intilish natijasida adib asarlari polifonik xususiyat kasb etgan. Natijada, ijodkor milliy romanchiligimiz poetikasiga qator yangiliklarni olib kirishga muvaffaq bo'lgan. Lekin yozuvchining tarixiy romanlari poetikasiga xos jihatlari va uslubiy izlanishlar maxsus tadqiq etilmaganligi bois, ularni ilmiy-estetik tahlil qilish zaruriyati yuzaga keldi. Chunki yangi davr badiiy-estetik qarashlari asosida o'zbek tarixiy romanlari poetikasi bir ijodkor misolida yaxlit o'rganilmagan. Shuning uchun ushbu masalani O'zbekiston xalq yozuvchisi O.Yoqubov adabiy mahorati negizida tahlil qilishni muhim deb bildik. Keyingi yillarda adabiyotshunoslikda umumjahon tarixiy romanchiligining yutuqlari bilan sharqona badiiyat o'ziga xos tarzda birlashib borayotgani adibning tarixiy romanlariga bugungi kun nuqtai nazaridan munosabat bildirish imkonini berdi. Ayni paytda, "Ulug'bek xazinasi" va "Ko'hna dunyo" romanlarini yaxlit holda, "xususiy poetika" aspektida maxsus tadqiqot obyekti qilib olish yuqoridagi fikrlar mundarijasini yana ham kengaytirib, zaruriy xulosalar chiqarish imkonini yaratadi. Maqolada adibning tarixiy romanlari misolida syujet qurish, xarakter yaratish mahorati va o'ziga xos uslubi tadqiq qilingan. Boshqa tarixiy romanlari bilan qiyosiy o'rinlar adib mahoratini aniqlashga yordam bergan.

Аннотация

В результате достижения жизненности в трактовке событий и характеров, стремления к новизне в изображении произведения народного писателя Узбекистана Адила Якубова "Сокровище Улугбека", "Этот старый мир" приобрели полифонический характер. В результате писателю удалось привнести ряд новшеств в поэтику национального романа. Но поскольку аспекты и методологические изыскания, характерные для поэтики исторических романов писателя, специально не исследовались, возникла необходимость в их научном и эстетическом анализе. Потому что, исходя из художественно-эстетических воззрений новой эпохи, поэтика узбекских исторических романов не была изучена целостно на примере одного писателя. Поэтому мы сочли важным проанализировать этот вопрос отдельно на основе литературных способностей народного писателя Узбекистана А. Якубова. Тот факт, что в последующие годы восточное искусство было по-своему объединено достижениями универсального исторического романтизма в литературной критике, позволил отреагировать на исторические романы писателя с точки зрения сегодняшнего дня. На данный момент роман "Сокровище Улугбека" и "Этот старый мир" в целостном виде, что делает его объектом специального исследования в аспекте "частной поэтики", еще больше расширяя содержание вышеуказанных пунктов, позволяет сделать необходимые выводы. В статье исследуется мастерство и неповторимый стиль построения сюжета, создания персонажей на примере исторических романов писателя. Сравнение с другими историческими романами помогло определить мастерство писателя. Были изучены вопросы важности художественного конфликта и его влияния на формирование характера при построении сюжета.

Abstract

Writer of Uzbekistan Odil Yakubov achieved vitality in the interpretation of events and characters in the novels "Ko'hna dunyo", "Ulug'bek xazinasi" and his literary works acquired a polyphonic character as a result of striving for novelty in the image. As a result, the artist was able to bring a number of innovations to the poetics of our national novel. However, due to the fact that the specific aspects of the poetics of the writer's historical novels and methodological researches have not been specifically researched, the need for their scientific-aesthetic analysis has arisen. Because the poetics of Uzbek historical novels, based on the artistic and aesthetic views of the new era, has not been comprehensively studied on the example of one creator. Therefore, we considered it important to analyze this issue based on the literary skill of the People's Writer of Uzbekistan O. Yaqubov. In the following years, the achievements of the world historical novel and oriental art are coming together in a unique way in literary studies, which made it possible to react to the writer's historical novels from today's point of view. At the same time, taking the novels "Ulug'bek xazinasi" and "Ko'hna dunyo" as a whole, as a special object of research in the aspect of "private poetics", will further expand the content of the above ideas and make it possible to draw the necessary conclusions. The article examines the author's historical novels, plot development, character creation skills, and his unique style. Comparisons with other historical novels helped to determine the skill of the writer.

Kalit so'zlar: syujet, xarakter, konflikt, uslub, mahorat, tarixiy roman, davr va sharoit, mantiqiy izchillik, voqelik, afsona va rivoyatlar, haqiqat va to'qima.

Ключевые слова: сюжет, персонаж, конфликт, стиль, мастерство, исторический роман, эпоха и обстоятельства, логическая последовательность, реальность, мифы и легенды, правда и вымысел.

Key words: plot, character, conflict, style, skill, historical novel, period and setting, logical consistency, reality, myth and narrative, truth and texture.

KIRISH

Har qanday badiiy asarning syujet qurilishida ijodkor uslubi, hayotiy tajribasi, badiiy mahorati uzviy birlikda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Chunki "... asar syujet va kompozitsiyasining yaxlitligi san'atkorning hayot konsepsiyasi, dunyoqarashiga bog'liqdir"[1.7.]. Shu ma'noda, O.Yoqubov tarixiy romanlarida ham o'ziga xos syujet qurilishini kuzatamiz.

Filologiya fanlari doktori A.Rahimov ta'kidlaganidek: "Aslini olganda, san'atkor niyatining ro'yobga chiqish darajasi, obrazlar mohiyatini ochishning chuqurligi, g'oyaning aniqligi, umuman, badiiy asarning yaxlitligi, o'qishliligi va badiiy-estetik kuchi ko'p jihatdan syujet va kompozitsiyaning mukammalligi, mazmunga qay darajada muvofiqligi bilan bog'liqdir. Asar syujeti va kompozitsiyasi yaxlit bo'lishi uchun yozuvchi-san'atkor borliqdagi hodisalarning o'zaro bog'liqligini chuqur idrok etishi kerak. Buning uchun esa san'atkorning g'oyaviy yetukligi, estetik qarashlarning to'g'riligi muhimdir. Shunday bo'lgandagina u mukammal syujet yarata oladi"[1.8]. Bu esa tarixni anglash, uning murakkab va dolg'ali voqeligini ijodkorona his eta olish, romaniy tafakkurni shakllantirish bilan bir qatorda, syujet qurilishini badiiy mukammallikka olib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Professor H.Boltaboyev fikricha, "Ulug'bek xazinasini" romanida yozuvchini birgina Ulug'bek taqdiri qiziqirmaydi (garchand u yirik tarixiy shaxs bo'lsa-da), Ulug'bekning ulug'ligi ma'rifatli shoh va ajoyib insonligidagina emas, u yaratgan ilmiy-adabiy merosda aks etgan... Tarixiy janrning asosiy belgilaridan biri shundan iboratki, yozuvchi kitobxon ko'zi o'ngida o'sha davr ruhiyatini tiriltira olishi kerak. Buning uchun u e'tiborni tarixiy shaxslar taqdiriga qaratadimi, davrning suronli kurashlari manzarasini chizadimi yoki e'tiborni ko'proq qahramonlar tiliga qaratadimi, bu harakatlar yuqoridagi bosh maqsadga yo'naltirilishi hamda shu kunga daxldor ma'naviy masalalarga ham munosabat bildirilishi kerakki, ana shundagina tarixiy asar xalq ma'naviyati xazinasidan joy oladi"[2.56] Haqiqatan ham O.Yoqubov tarixiy shaxslar siymosini yaratar ekan, davr muhitining murakkab va ziddiyatli qirralarini obrazlar tizimi orqali ochib berdi. Toju taxt kurashlarining avj olishi natijasida Ulug'bek Mirzoning iztirobli hayoti o'ta ziddiyatli va murakkab tarixiy davr fonida o'z aksini topgan. Tarixiy voqelik asarning badiiy mukammalligini ta'minlashi natijasida xarakterlarning voqealar rivojidadagi shakllanishiga zamin yaratadi. Natijada romanda xarakterga hamohang bo'lgan voqelik asos qilib olinganligi uchun ham qahramon ruhiy-ma'naviy dunyoqarashini yoritishga xizmat qilgan aynan shu voqelik syujet badiiy mukammalligini ta'minlagan. Chunki akademik M.Qo'shjonov ta'kidlaganidek: "Hayotiy voqealar va xarakterlar birikmasidan badiiy syujet chiqishi uchun o'zaro uzviy bog'liq va tugal bir asarga asos bo'lishi lozim. Yozuvchi tanlagan har bir epizod, har bir voqea, uning katta yo kichikligidan qat'i nazar, shu voqea bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan xarakterning biror tomonini, yozuvchi niyatiga binoan, albatta, zarur tomonini ochib berishga xizmat qilishi kerak"[3.216]. Haqiqatan ham O.Yoqubov "Ulug'bek xazinasini", "Ko'hna dunyo" romanlarida Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Abdullatif, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi o'nlab tarixiy siymolar badiiy obrazini yaratar ekan, ularning tarixiy voqelik zamiridagi shiddatli kurashlari, ruhiy iztiroblar iskanjasidagi qiynoqlari va ma'nan yuksalish o'rinlari asardagi voqealar mantiqiy izchilligiga asoslangan. Chunki voqealar mantig'i asardagi har bir qahramonning o'ziga xosligini yoritishga xizmat qiladi. Asardagi voqealar silsilasini kuchaytirib borish, hayotiylik va tarixiylikka asoslanishi badiiy g'oyani yuzaga chiqarishi bilan birlikda syujetning o'rni muhimligini ham ko'rsatadi. Har qanday badiiy asardagi voqealar xarakterlar mantig'iga uzviy bog'lanadi, bu esa xarakter yaratilishidagi syujetning ahamiyatini asoslaydi. Shuning uchun syujetda xarakterning dinamikligi va o'ziga xosligi asarning emotsionalligini yuzaga chiqaradi.

A.Rahimov ta'kidlaganidek: "Tarixiy romanga qo'l urar ekan, O.Yoqubov uzoq o'tmishning shiddatli va keskin davri voqealariga murojaat qiladi, ana shu davr bilan hamohang nurli chiziqlar qidiradi. Yozuvchi tarixning shiddatli voqealariga maftun bo'lib qolmaydi. Asarda temuriylar saltanatining taqdiri va inqirozi emas, ilm saltanatining taqdiri va istiqboli, Sharq buyuk mutafakkirlari yaratgan kashfiyotlar taqdiri markazga qo'yiladi"[1.41]. Yoki akademik M.Qo'shjonov yozganidek: "Ba'zi asarlarda voqea va xarakterlar mantig'i barobar tasvirlanadi. Ularning biri zaif, biri kuchli ekanini sezmaymiz. Realistik planda yozilgan tarixiy asarlarda syujet ko'pincha shu tarzda tasvirlanadi. A.Tolstoyning "Pyotr Birinchi", Oybekning "Navoiy", M.Avezovning "Abay", O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanlari shu xildagi asarlardir"[3.227]. Darhaqiqat, voqealar rivoji va xarakterlar mantig'ining uzviyligi adibning tarixiy romanlaridagi syujetning badiiy

mukammalligini ta'minlashga xizmat qilgan. Chunki "Ulug'bek xazinasini" romanidagi Mirzo Ulug'bek obrazini romandagi voqealar silsilasidan ajratib olgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Mirzo Ulug'bek xarakteri o'z mantig'iga asoslangan holda taraqqiy etib, tarixiy davrning ichki ziddiyatlarini, ya'ni uning mohiyatini ochishga xizmat qilgan. Romanda davrning toju taxt uchun kurashlari, ma'rifat va jaholat o'rtasidagi murosasiz ziddiyat uyg'un holda aks ettirilishi yozuvchiga voqeliklar xarakter shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatganligini haqqoniy tasvirlash imkonini beradi. Ba'zan xarakterning mantiqiy izchilligi esa voqealar rivojini ta'minlagan, ziddiyatlar fonidagi shaxslar qismatini talqin etish jarayonini ko'rsatgan. Har bir ijodkor tarixiy davrga yondashar ekan, uning mantiqiylikni, izchilligini saqlashga harakat qiladi. Mirzo Ulug'bek xarakteri mantiqiy izchillikda shakllanib, tarixiy davr voqeligini yoritishga asos bo'lganini inkor etib bo'lmaydi. Talqin uchun asos bo'lgan tarixiy voqealar esa, Mirzo Ulug'bek xarakterining asosiy qirralarini ochishga xizmat qilganligi va tasvirdagi ifoda uchun asosiy vosita bo'lgan. Tarixiy voqealar qanchalik murakkab va ziddiyatli bo'lmasin, asardagi xarakter mantig'ini yoritishga zamin bo'lgan. Chunki haqiqiy xarakterlar voqealar zamirida, ya'ni syujetda shakllanadi. Demak, asarda, ayniqsa bevosita tarixiy voqelik bilan uzviy bog'liq bo'lgan badiiy syujetda xarakterlar shakllanib, tadrijiy taraqqiy etadi.

Professor A.Rasulov xulosasiga ko'ra, "Ulug'bek xazinasini" tarixiy romanini yaratar ekan, O.Yoqubov tadqiqotchi-yozuvchi, uzoq tarix bilan hozirgi kun orasidagi bog'liqlikni his etuvchi san'atkor ekanligini isbotladi. U xalqning o'tmishini hozirgi kunning yetakchi ijtimoiy-axloqiy ideallari nuqtayi nazaridan baholadi. Ulug'bek hukmronligining so'nggi kunlarini badiiy tahlil etar ekan, o'sha davr ilg'or kishilarining o'y-mulohazalari, intilishlarini ko'rsatib berdi. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy-texnika taraqqiyoti davrining yetuk vakili bo'lgan yozuvchi XV asrda ilm mash'alini yoqqan, yorqin kelajakka ilm-ma'rifat yo'lidangina borish mumkinligiga ishongan Ulug'bek, Ali Qushchi, Miram Chalabiy, Qalandar Qarnoqiy xarakterlarini yaratdi"[4.175].

Professor U.To'ychiyevga ko'ra, "syujet asosida konflikt turadi, shu sababli, u tez rivojlanadi... To'g'ri, xarakter syujetda, konflikt negizida tug'iladi va shakllanadi, ammo konflikt ichida kelishib, hal qiladiganlari ham bo'ladi. Syujet – xarakter tarixi, xarakterni shakllantiradi, syujetning voqealari esa xarakter yaratish vositasidir"[5.335].

Xo'sh, shunday ekan, syujet bilan konfliktning bog'liqligi nimadan iborat? Nazariy manbalarning ko'rsatishicha, "... hayotda rivojlanish qarama-qarshiliklarning kurashi oqibatidir. Ijtimoiy taraqqiyotning xuddi shu qonuniga mos holda adabiyotda ham hayot harakatda ko'rsatiladi... Konflikt – badiiy asarda tasvirlangan xarakterlar, ifoda etilgan g'oyalar, kayfiyatlarining kurashidir... Syujetida konflikt bo'lmagan asar ta'sirchan emas, chunki unda hayotiy haqiqat to'la va izchil ifodalanmaydi. Faqat xarakterlarning to'qnashuvi natijasidagina ularning ichki dunyosi eng to'la ravishda ochiladi"[6.181]. Konflikt badiiylikning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Konfliktli syujet va motivlarga boyligi, ularning rang-barang shakl va tiplarining murakkab darajada chatishib ketuvi roman janrining spetsifik xususiyatlaridandir. Konflikt faqat syujet bilan, uning elementlari bilan birgalikda o'zining badiiy imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishi mumkin[7.39-40]. Konflikt syujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lib, syujetning asosiy bosqichlarini belgilaydi[8.144].

NATIJAR VA MUHOKAMA

O.Yoqubov tarixiy romanlarida ham badiiy-estetik qiymati bilan zuhr bo'lgan, og'zaki ijod elementlaridan foydalangan. Bunda voqelik asosida xarakterlar yaratar ekan, ijodkor o'z qarashlari va fantaziyasi bilan cheklanib qolmaydi, balki voqealar rivoji ta'minlab beradigan hayot mantig'iga asoslanadi. Adib asarlarida voqealar mantig'i tasviri yetakchilik qilsa, ba'zilarida xarakterlar mantig'i yetakchilik qiladi.

Iste'dodli adib o'tmish voqeligini, tarixiy shaxs va badiiy to'qima obrazlarni talqin etar ekan, ularning voqealar rivojiga hamohang tarzda xarakterlarini yaratadi. Yuqorida qayd qilinganidek, tarixiy voqealar mantig'i xarakterlar mantig'iga uzviy bog'liqlikda yaratiladki, uning zamirida o'tmish voqeligi, turfa xil ziddiyatlari Ulug'bek Mirzoning so'nggi davri bilan bog'lanib, shohlik va ilm yo'lidagi kurashlari yorqin bo'yoqlarda namoyon bo'ladi. Romanda har qanday tarixiy davr emas, Ulug'bek Mirzoga hamohang shiddatli voqelik asos qilib olinishi, davr va xarakterlarning mukammalligi, uzviyligini ta'minlashga xizmat qilgan. Chunki tarixiy voqelik asar syujetiga asos qilib olinar ekan, hayotiy ziddiyalar mantiqiy izchillikka tayanib, badiiy konflikt yaratiladi va rivojlanib boradi.

Mazkur nuqtayi nazarlardan kelib chiqib, O.Yoqubovning tarixiy romanlarida hayotiy ziddiyatga asoslangan tarixiy voqealar silsilasida turfa xil konfliktlarning badiiy ifodasini kuzatamiz.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Natijada ijtimoiy sharoit va qahramon, xarakterlararo, ruhiy konfliktlar tarixiy romanlarning badiiy mukammalligini ta'minlashga xizmat qilgan. Shu jihatdan qaralsa, "Ulug'bek xazinasi"dagi Mirzo Ulug'bek va sharoit, Mirzo Ulug'bek va xarakterlar to'qnashuvi, ruhiy iztiroblar iskanjasidagi murakkab ziddiyatlar qahramonlarning xarakter xususiyatini ochishga xizmat qilgan. "Ko'hna dunyo" romanida ham Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va tarixiy muhit, asardagi yetakchi obrazlar va xarakterlararo hamda ruhiy konfliktlar zamirida ikkinchi darajali personajlar olami ochib berilgan. Darhaqiqat, ijtimoiy muhitning inson ruhiyatiga, xarakterning shakllanishiga sezilarli ta'siri ham tarixiy voqelik asosida yoritiladi. Ba'zan muhit insonning o'zligini, xarakterini namoyon etishda sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun professor H.Umurov "...xarakter va sharoit hamma vaqt dialektik aloqada rivojlanadi. San'atkorlar ana shu dialektikaga izchil amal qilganlaridagina xarakterni yorqin, tipik xususiyatlarini ham, hayotning, davrning mohiyatini ham haqqoniy ifodalay oladilar", – deb ta'kidlaydi[9.92].

Nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotining yetuk namoyandalari ham sharoit mantig'ini xarakter mantig'i bilan dialektik birlikda talqin qilish va buyuk tarixiy obrazlarni yaratishga intilganligini ko'ramiz. Chunki har qanday tarixiy voqelik zamirida inson xakteri, uning o'z dunyoqarashi mujassamlashgan bo'ladi. Xarakter esa sharoit mantig'idan kelib chiqib, tasvirga olinadi va voqealar rivoji, uning turli qirralarini yoritishga zamin hozirlaydi. O.Yoqubov tarixiy romanlarida ham aynan shunday holatlar kuzatiladi.

"Ulug'bek xazinasi" romanida syujetdagi mantiqiy izchillik asosida yaratilgan xarakterlarni ko'rish mumkin. Shu jihatdan, Muxtor Avezovning "Abay" romaniga e'tibor qaratsak, xarakter va sharoit mantig'i izchilligi davr mohiyatini ochishga xizmat qilganligiga guvoh bo'lamiz. Asarda ijtimoiy muhit xarakter shakllanishiga ta'sir o'tkazgan. Chunki Abaydek yigitning Boydali bilan bo'lgan suhbatining bir qancha qarashlari, tushunchalari o'zgarishiga zamin bo'lgan ediki, hayotiy haqiqat har lahza ustun ekanligining shohidi bo'lib turganligi ham badiiy qahramon xarakter xususiyatini teranlashtirgan. Bu talqinlar asosida sharoit va xarakter, xarakter va badiiy konfliktning uzviy birligini anglash mumkin. Sharoit tufayli ziddiyatga borgan Boydali mulohazalari achchiq, ammo bor haqiqatni anglash imkonini bergan. Abayda shundan keyin kurashlar, ziddiyatlarning sabablarini teranroq his etish, tafakkur qilish lozimligini, ya'ni dunyoqarashini shakllanishiga xizmat qilganligini keyingi tasvirlar yanada oydinlashtiradi. "Ulug'bek xazinasi" romanida ham Abdullatifga bo'lgan o'zgalarning ta'siri o'z otasiga nisbatan g'araz niyatlarini amalga oshirishda katalizatorlik vazifasini bajaradi. Aynan ziddiyatlar natijasida Abdullatifning haqiqiy xakteri ko'rinadi. Xarakter esa konflikt asosida o'zini namoyon etadi.

Demak, voqealar rivoji badiiy konfliktni, bu esa o'z navbatida xarakterlar shakllanishini yuzaga chiqaradi. Romandagi tasvirlar hayotiy ziddiyatlarning badiiy ifodasi, Abay xakterining shakllanishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda, uning muhitni anglash, his etish jarayoni ham o'z ifodasini topgan. Syujet voqelik, konflikt va xarakter birligini namoyon qilgan. Ushbu tushunchani asoslash uchun iste'dodli adib Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanidagi voqealar mantig'i va xarakter yaratish talqinlariga diqqat qilar ekanmiz, tasvirlarda har ikki shoh va shoir (Sulton Husayn va Shayboniyxon) xakter xususiyatining ma'lum qirrasini juda asosli va tarix haqiqatidan kelib chiqib tasvirlaganligining guvohi bo'lamiz. Chunki bir qator badiiy asarlarda talqin qilinganidek, Shaybonixon o'ta zulmkor shaxs emas, bu birinchidan, ikkinchidan, harbiy ilmni, fiqh, mantiqni va boshqa qator ilmlarni mukammal egallagan, diyonatli shaxs edi. Ijodkor romandagi tarixiy voqelikning ma'lum o'rnida uning jasoratini, fidoiyligini asosli ifodalagan. Natijada tarixiy voqelik hayotiy mantiqqa asoslanganligini teranroq his eta boshlaymiz.

Bu kabi tarixiy voqelikning jonlantirilishi va badiiy voqelikka aylantirilishida O.Yoqubovning mahorati ham e'tiborga loyiq. Chunki O.Yoqubov romaniy tafakkurining 70-80-yillardagi og'ir ma'naviy muhitda shunday tarixiy obrazlar galereyasini yaratganligi, adibdan badiiy mahorat bilan bir qatorda, katta milliy jasoratni ham talab etgan.

Ta'kidlanganidek, har qanday tarixiy voqea ma'lum bir hayotiylikka asoslansa-da, sharoit mantig'iga hamohang bo'lishi badiiyat qonuniyatlaridan biri ekanligini hisobga olsak, M.Avezovning "Abay", I.Sultonning "Alisher Navoiy" romanlarida ham o'ziga xos xakterlar olami, tarixiy voqealar silsilasida sharoit mantig'iga asoslangan tipik sharoitda tipik xakterlar yaratilgan.

Demak, tarixiy sharoit va voqealar mantig'i Ulug'bek Mirzoning qat'iyatli shaxs ekanligi, shogirdlarga mehribon ustoz sifatidagi xislatlarini namoyon qilgan. "Ulug'bek xazinasi" romanidagi

syujet liniyasida badiiy konfliktning kuchayib borishi, asar qahramonlarining ruhiy iztiroblarini ochishga, talqin etishga asos bo'lgan. Chunki badiiy konfliktning kuchayib borishi, ruhiy-ma'naviy olamdagi ziddiyatlarni namoyon qiladi. Shuning uchun ruhiy konflikt zamiridagi achchiq haqiqatlar, Mirzo Ulug'bek qalbini larzaga solishi bejiz emas. Syujetdagi voqealar rivoji sharoit mantig'ini ham teran talqinlar asosida tasvirda namoyon qilgan.

Romandagi voqealar rivojiga nazar tashlar ekanmiz, ba'zan tarixiy voqelikning hayot mantig'idan uzoqlashishi yoki tarix haqiqatini bir yoqlama talqin etish holatlari ham kuzatilgan. Romanning ilk nashrlarida Xoja Ahrori Valiy, Gavharshodbegim obrazlarida ana shunday talqin yetakchilik qilgan. Bu esa roman yaratilgan davrning murakkab prinsiplaridan kelib chiqib, hayot mantig'i tarixiy sharoit mantig'idan uzoqlashishiga sabab bo'lgan. Ba'zi bir tarixiy shaxslar, buyuk arboblarning obrazlarining nisbatan bir tomonlama bo'lib qolganligi sabablaridan yana biri shundaki, totalitar tuzumning siyosiy ustqurmasi ijodkorlar o'ziga xosligining to'la ro'yobga chiqishiga yo'l bermadi, sinfiylik andozalari vositasida voqea-hodisalarga ularning shaxsiy munosabatini chegaralab qo'ydi, qolipga sig'magan ijodkorlar va asarlarni ta'qiq va ta'qib qildi. Shu ma'noda O.Yoqubov "adabiyotning temir qoidalari" juda kuchaygan dolg'ali zamonda tarixiy romanlarini yaratishi adibning badiiy mahoratidan, insoniy fazilatidan dalolat beradi.

XULOSA[10]

Odil Yoqubov tarixiy romanlarining asosiy xususiyatlari[11;12] sifatida quyidagilarni qayd etish zarur:

1. Yozuvchi Ulug'bek Mirzo siymosini yaratishda sharoitning xarakterga ta'sirini, aksincha, xarakterning ijtimoiy muhitga ta'sir o'tkaza olish jarayonlarini talqin etishda mantiqiylikka, badiiy me'yorga, tarixiy davr haqiqatiga asoslangan.

2. Shoh va olimning murakkab xarakterini ijtimoiy muhit ziddiyatlari orqali jonlantirgan.

3. San'atkor idrokining mifologik tafakkur, falsafiy, badiiy-estetik vositalar bilan boyishi, romanning bu sohada ham peshqadamlik bilan ibrat ko'rsatib, qator ijodiy vazifalarni hal etishi, badiiy tasvir imkoniyatlarini jiddiy ravishda kengaytirgan.

ADABIYOTLAR

1. Rahimov A. Roman san'ati. – Farg'ona: Farg'ona, 2015. –B.8.
 2. Boltaboyev H. Nasr va uslub. –Toshkent: Fan, 1992. – B.56.
 3. Qo'shjonov M. Saylanma. Ikki jildlik. Ikkinchi jild. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – B.216.
 4. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007. – B.175.
 5. To'ychiyev U. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2011. – B.335.
 6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1986. – B.181.
 7. Rahimov A. O'zbek romani poetikasi (syujet va konflikt): Fil.fan.dok...diss.avtoref. –Toshkent, 1993. – B.39-40.
 8. Qur'onov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. –Toshkent, Akademiya nashri, 2010. –B.144.
 9. Umurov H. Tahlil san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti: 1978. – B.92.
 10. Rahimov Z. Chronotope image in the novel "Ulugbek treasure" by Odil Yakubov // International Journal of Integrated Education, 2020, ноябрь. № 3. – 183-186.
 11. Rahimov Z., Gulomov D. Retrospective plot features. PRA International Journal of Multidisciplinary Research SJIF Impact Factor :7.032 ISI I.F. Value : 1.188 DOI : 10.36713/epra 2013 ISSN (Online) : 2455 – 3662 Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal Volume: 6 Issue: 11 November 2020. –510-513
- Rahimov Z., Gulomov D. Retrospective structure in fiction. "Actual problems of classical and modern uzbek literature" collection of the international online conference. Published by Research Support Center. –Toshkent, 2020. –153-160.